

MAMLAKATDA IJTIMOIIY TABAQALASHUV TENDENSIYALARINING DOIMIIY MONITORING TIZIMINI YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Boltayeva Zinora Mirdjonovna

Alfraganus University NOTT
Loyiha Yetakchi ilmiy xodimi,
“Menejment va marketing” kafedrası PhD, dotsenti
E-mail: eshov.mansur@mail.ru

Xidirova Barchinoy Ilxomovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası,
PhD, katta o‘qituvchisi

Аннотация

Mazkur ilmiy ishda ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlarini tizimli monitoring qilish zarurati, uning nazariy asoslari va metodologik yondashuvlari keng yoritilgan. Tadqiqotda ijtimoiy tengsizlikni baholashning zamonaviy indikatorlari, jumladan Jini koeffitsiyenti, Palma nisbati va ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indekslari tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda ijtimoiy tabaqalashuvni baholashda an’anaviy statistik usullar bilan bir qatorda zamonaviy raqamli yondashuvlar - Big Data texnologiyalari, sun’iy intellekt asosidagi tahlil va real vaqt monitoring tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Ushbu yondashuvlar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tezkor va aniq tahlil qilish, hududiy va demografik tafovutlarni aniqlash hamda ijtimoiy siyosatni samarali rejalashtirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tabaqalashuv, ijtimoiy tengsizlik, daromadlar differensiallashuvi, monitoring tizimi, Big Data, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, hududiy tengsizlik, demografik tafovutlar, bandlik, norasmiy sektor, ijtimoiy mobillik, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация

В данной научной работе всесторонне рассматривается необходимость системного мониторинга процессов социальной стратификации, а также их теоретические основы и методологические подходы. В исследовании анализируются современные индикаторы оценки социального неравенства, включая коэффициент Джини, коэффициент Пальмы и индекс многомерной бедности. Кроме того, в работе рассматриваются возможности использования современных цифровых подходов наряду с традиционными статистическими методами, в частности технологий Big Data, анализа на основе искусственного интеллекта и систем мониторинга в реальном времени. Данные подходы позволяют осуществлять оперативный и точный анализ социально-экономических процессов, выявлять территориальные и демографические различия, а также повышать эффективность планирования социальной политики.

Ключевые слова: социальная стратификация, социальное неравенство, дифференциация доходов, система мониторинга, Big Data, цифровая экономика,

социальная политика, региональное неравенство, демографические различия, занятость, неформальный сектор, социальная мобильность, экономическое развитие.

Abstract

This scientific study comprehensively examines the necessity of systematic monitoring of social stratification processes, as well as their theoretical foundations and methodological approaches. The research analyzes modern indicators for assessing social inequality, including the Gini coefficient, the Palma ratio, and the multidimensional poverty index. In addition, the study explores the possibilities of applying modern digital approaches alongside traditional statistical methods, particularly Big Data technologies, artificial intelligence-based analysis, and real-time monitoring systems. These approaches enable rapid and accurate analysis of socio-economic processes, identification of regional and demographic disparities, and improvement of social policy planning effectiveness.

Keywords: social stratification, social inequality, income differentiation, monitoring system, Big Data, digital economy, social policy, regional inequality, demographic disparities, employment, informal sector, social mobility, economic development.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi jamiyatda ijtimoiy tabaqalashuv darajasining ortib borishiga olib kelmoqda. Ijtimoiy tabaqalashuv jamiyat a'zolarining daromadlari, mulkiy holati, ijtimoiy maqomi va imkoniyatlari bo'yicha farqlanishini ifodalovchi muhim sotsiologik kategoriya hisoblanadi. Ushbu jarayonning chuqurlashuvi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirib, jamiyat barqarorligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ijtimoiy tengsizlik muammosi dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki va BMT tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, daromadlar va imkoniyatlar o'rtasidagi tafovutning ortishi iqtisodiy o'sishning barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlarini chuqur o'rganish, ularni baholash va samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy ilm-fanning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida ham ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlarining rivojlanishi va institutsional o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq holda shakllanmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda aholi farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ushbu jarayonlar bilan bir qatorda hududiy, demografik va iqtisodiy tafovutlarning saqlanib qolayotganligi ijtimoiy tabaqalashuvni muntazam monitoring qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur muammoning dolzarbligi shundan iboratki, mavjud statistik kuzatuv tizimlari ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlarini to'liq va real vaqt rejimida aks ettirish

imkoniyatiga ega emas. An'anaviy statistik usullar ko'pincha kechikkan ma'lumotlarni taqdim etadi, bu esa ijtimoiy siyosatni tezkor va samarali shakllantirishni cheklaydi. Shu bois, zamonaviy raqamli texnologiyalar, Big Data va sun'iy intellekt asosida ishlovchi doimiy monitoring tizimlarini joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda davlat boshqaruvi uchun eng muhim vazifalardan biri - ijtimoiy tabaqalashuv darajasini doimiy ravishda monitoring qilish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirishdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali monitoring tizimlari ijtimoiy siyosatni dalillarga asoslangan holda shakllantirish imkonini beradi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy tabaqalashuv nazariyasi sotsiologiya fanining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning ilmiy asoslari Karl Marks, Maks Veber va Emil Dyurkgeym asarlarida shakllangan. Ushbu klassik nazariyalar ijtimoiy tengsizlikni tushuntirishda turli metodologik yondashuvlarni taklif etadi.

Karl Marks ijtimoiy tabaqalashuvni asosan ishlab chiqarish vositalariga egalik bilan bog'lab, jamiyatni sinflarga - burjuaziya va proletariatga ajratadi. Uning fikricha, "ijtimoiy tengsizlik iqtisodiy munosabatlar tizimidan kelib chiqadi va sinfiy kurash orqali namoyon bo'ladi" [2]. Bu yondashuvda iqtisodiy omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Maks Veber esa tabaqalashuvni yanada kengroq talqin qilib, uni ko'p o'lchovli tizim sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, jamiyatdagi ijtimoiy farqlar nafaqat iqtisodiy resurslar, balki siyosiy hokimiyat va ijtimoiy maqom orqali ham belgilanadi. Veber shunday ta'kidlaydi: "ijtimoiy stratifikatsiya uch asosiy komponent - sinf, status va hokimiyatdan iborat" [3]. Ushbu yondashuv tabaqalashuvni kompleks tizim sifatida tushunishga imkon beradi.

Emil Dyurkgeym esa ijtimoiy tabaqalashuvni mehnat taqsimoti bilan bog'lab, uni jamiyatning funksional zaruriyati sifatida baholaydi. Uning fikricha, "ijtimoiy differentsiallashtirish jamiyatning barqarorligi va rivojlanishining muhim omilidir" [4]. Bu yondashuv tabaqalashuvni ijtimoiy tizimning muvozanatini ta'minlovchi mexanizm sifatida ko'rsatadi.

Bu esa klassik nazariyalar ijtimoiy tabaqalashuvni turli nuqtai nazardan - iqtisodiy, ijtimoiy va funksional jihatdan - tushuntirib beradi va zamonaviy tadqiqotlar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuv va tengsizlik muammolari so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylangan. Ayniqsa, mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilishni talab etmoqda.

Mahalliy tadqiqotchilar ijtimoiy tabaqalashuvni asosan aholi farovonligi, daromadlar differentsiallashtirishi va ijtimoiy himoya tizimi orqali o'rganadilar. Xususan, Xasanov va Turdiyev aholi farovonlik darajasidagi tafovutlarni tahlil qilib, "ijtimoiy tengsizlik darajasi davlatning ijtimoiy siyosati va resurslarni qayta taqsimlash mexanizmlariga bevosita bog'liq" ekanligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha,

O‘zbekistonda tengsizlik darajasi nisbatan past bo‘lsa-da, hududlar kesimida sezilarli farqlar mavjud [5].

Bundan tashqari, Usmonova Saodatxon o‘z tadqiqotlarida ijtimoiy taraqqiyot, milliy g‘oya va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, “ijtimoiy taraqqiyot darajasi jamiyatdagi tabaqalashuv ko‘lami va ijtimoiy adolat tamoyillariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi” degan fikrni ilgari suradi [6].

O‘zbek adabiyotlarida ijtimoiy tabaqalashuvni o‘rganishda yana bir muhim yo‘nalish - bu hududiy va demografik tafovutlar hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qishloq va shahar aholisi o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, bandlik va daromad darajasidagi tafovutlar ijtimoiy tabaqalashuvning asosiy omillaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tabaqalashuv nazariyasi klassik yondashuvlardan boshlab zamonaviy ko‘p o‘lchovli va raqamli metodlarga rivojlangan. Klassik nazariyalar nazariy asosni yaratgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlar uni amaliy va empirik jihatdan boyitgan. Ayniqsa, indikatorlar tizimi va raqamli monitoring metodlari bugungi kunda ijtimoiy tengsizlikni chuqur tahlil qilishning asosiy vositasiga aylangan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda intellektual boshqaruv tizimlarining (ERP, MES, SCADA, IoT, AI) sanoat korxonalarida joriy etilishi orqali raqobatbardoshlikka ta’siri nazariy va amaliy jihatdan kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari asosiy parametrning o‘zgarish tendensiyalari baholandi. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning sanoat boshqaruvidagi nazariy asoslari, ishlab chiqarish tizimlaridagi transformatsion model va raqamli integratsiyaning evolyutsion bosqichlari tahlil qilindi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiya, trend tahlil, SWOT-tahlil, ekspert baholash, indeks usuli va sintez usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy tabaqalashuvni empirik baholashda xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan indikatorlar - Jini koeffitsiyenti, Palma nisbati, kambag‘allik darajasi va daromadlar taqsimoti hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda daromadlar tengsizligini ifodalovchi Jini koeffitsiyenti 2023-yilda 0.31 dan 0.35 gacha oshgan [7]. Bu ko‘rsatkichning o‘sishi jamiyatda ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlarining kuchayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, mazkur daraja xalqaro miqyosda o‘rtacha yoki nisbatan past ko‘rsatkich sifatida baholanadi.

Tarixiy dinamikaga nazar tashlasak, mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy o‘tish davri ta’sirida tengsizlik darajasi sezilarli o‘zgarishlarga uchragan. Cornia tadqiqotiga ko‘ra, 1990-yillarda Jini koeffitsiyenti ayrim davrlarda 0.45-0.48 darajagacha yetgan, bu esa o‘tish iqtisodiyotiga xos keskin differentsiallashtirishni

ko'rsatadi. Keyingi yillarda davlatning ijtimoiy siyosati natijasida bu ko'rsatkich pasaygan.

O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlarini baholashda kompleks yondashuv qo'llanilib, asosiy statistik indikatorlar sifatida daromadlar tengsizligi, kambag'allik darajasi, bandlik ko'rsatkichlari hamda hududiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi. Mazkur indikatorlar jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash, ularning dinamikasini kuzatish va ijtimoiy siyosat samaradorligini baholash imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, aynan ko'p omilli indikatorlar tizimi ijtimoiy tabaqalashuvni to'liq va obyektiv baholashning eng samarali vositasi hisoblanadi [8]. Shu nuqtai nazardan, daromadlar differentsiallasuvi ijtimoiy tabaqalashuvning asosiy indikatorlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Daromadlar tengsizligi bilan uzviy bog'liq holda kambag'allik darajasi ham ijtimoiy stratifikatsiyaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy dasturlar natijasida kambag'allik darajasining qisqarishi kuzatilmoqda. Xususan, ijtimoiy himoya tizimining takomillashuvi, manzilli yordam mexanizmlarining joriy etilishi hamda bandlik dasturlarining kengaytirilishi bu jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kambag'allikning kamayishiga qaramay, ayrim ijtimoiy-demografik guruhlar, xususan, qishloq aholisi, kam ta'minlangan oilalar va norasmiy sektorda band bo'lgan shaxslar orasida ushbu muammo dolzarbligicha qolmoqda [9].

Ijtimoiy tabaqalashuvni chuqurroq tahlil qilishda bandlik ko'rsatkichlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mehnat bozoridagi nomutanosibliklar, xususan, yuqori va past malakali ishchilar o'rtasidagi daromad tafovutlari, norasmiy bandlikning yuqori ulushi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiruvchi omillar sifatida qayd etiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, "aholi bandligi darajasidagi farqlar daromadlar differentsiallasuvining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi" [10]. Bu esa ijtimoiy tabaqalashuvni kamaytirishda bandlik siyosatini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari ham ijtimoiy tabaqalashuvning muhim determinantlaridan biridir. O'zbekistonda hududlar kesimida iqtisodiy rivojlanish darajasining notekisligi kuzatilib, bu daromadlar va yashash sharoitlari o'rtasidagi tafovutlarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatidagi farqlar hududiy tengsizlikni kuchaytiradi. Natijada, ijtimoiy tabaqalashuv nafaqat iqtisodiy, balki hududiy omillar bilan ham belgilanadi. O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlari ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, u daromadlar tengsizligi, kambag'allik darajasi, bandlik va hududiy rivojlanish omillari orqali shakllanadi. Mazkur indikatorlarning o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilish ijtimoiy siyosatni samarali shakllantirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, yirik urbanizatsiyalashgan markazlar - Toshkent shahri va Samarqand viloyatida iqtisodiy faollikning yuqoriligi, xizmatlar sektori rivojlanganligi hamda investitsiya oqimlarining ko'pligi sababli aholi daromadlari nisbatan yuqori darajada

shakllanadi. Aksincha, qishloq hududlarida iqtisodiy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ish o‘rinlarining cheklanganligi hamda asosan agrar sektor ustuvorligi sababli bandlik va daromad ko‘rsatkichlari pastroq darajada qolmoqda. Bu holat hududiy ijtimoiy tabaqalashuvning chuqurlashishiga olib keladi.

Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, “hududiy tafovutlar ijtimoiy tengsizlikning eng muhim manbalaridan biri bo‘lib, ular aholining iqtisodiy imkoniyatlari va hayot sifati o‘rtasidagi farqlarni belgilaydi”. Ayniqsa, transport infratuzilmasi, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatidagi nomutanosibliklar hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni yanada kuchaytiradi. Natijada, rivojlangan hududlar va kam rivojlangan hududlar o‘rtasida “ijtimoiy tafovut spiral”i yuzaga keladi, ya’ni rivojlangan hududlar yanada rivojlanib boradi, kam rivojlangan hududlar esa nisbatan orqada qolib ketadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tabaqalashuvning demografik omillari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining yosh tarkibi, gender tengligi va mehnat bozoridagi ishtiroki darajasi ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda yoshlar ulushining yuqoriligi sharoitida ularning bandlik bilan ta’minlanishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlar orasida ishsizlik darajasining nisbatan yuqoriligi ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishini qiyinlashtiradi va ijtimoiy tabaqalashuvni kuchaytiradi.

Gender jihatdan ham ma’lum tafovutlar mavjud bo‘lib, ayollar bandligi va daromad darajasi erkaklarga nisbatan pastroq ekanligi kuzatiladi. Bu esa ijtimoiy tengsizlikning yana bir muhim ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, “yuqori daromadli ish o‘rinlariga kirish imkoniyatining cheklanganligi, ayniqsa ayollar va yoshlar uchun, strukturaviy tengsizlikni kuchaytiruvchi omillardan biridir” [11].

Hududiy va demografik omillar o‘zaro bog‘liq holda ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlarini shakllantiradi. Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy farqlar demografik guruhlar imkoniyatlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan siyosatda hududiy rivojlanishni muvozanatlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy tabaqalashuv darajasiga bevosita ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri - bu bandlik va mehnat bozori holati hisoblanadi. Mehnat bozori jamiyatda daromadlar taqsimoti, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy mobillik darajasini belgilovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, bandlik strukturasi va uning sifati ijtimoiy tengsizlikni shakllantiruvchi asosiy determinantlardan biri sifatida qaraladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rasmiy bandlik darajasining oshishi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Rasmiy sektor doirasida faoliyat yurituvchi ishchilar barqaror daromad manbaiga, ijtimoiy himoya tizimlariga (pensiya, sug‘urta) va mehnat huquqlariga ega bo‘ladilar. Bu esa aholi daromadlari o‘rtasidagi keskin tafovutlarning yumshashiga olib keladi. Aksincha, norasmiy sektor ulushining yuqoriligi ijtimoiy tabaqalashuvni kuchaytiradi, chunki bunday bandlik shaklida daromadlar beqaror, ijtimoiy kafolatlar esa cheklangan bo‘ladi.

1-jadval.
O‘zbekistonda hududiy ijtimoiy tabaqalashuv ko‘rsatkichlari (shahar va qishloq kesimida) [12]

№	Ko‘rsatkichlar	Shahar hududlari (urban)	Qishloq hududlari (rural)	Tafovut tavsifi	Ijtimoiy ta’siri
1	O‘rtacha daromad darajasi	Yuqori	Past	1.5-2 baravar farq	Tabaqalashuvni kuchaytiradi
2	Bandlik darajasi	Barqaror (rasmiy sektor ustun)	Nisbatan past (norasmiy sektor yuqori)	Strukturaviy farq	Ijtimoiy himoya cheklangan
3	Norasmiy bandlik ulushi	Past	Yuqori	20-30 foiz farq	Daromad beqarorligi
4	Ta’lim sifati va imkoniyati	Yuqori	Nisbatan past	Sifat tafovuti	Inson kapitali farqi
5	Sog‘liqni saqlash xizmatlari	Rivojlangan	Cheklangan	Infrastrukturaviy tafovut	Hayot sifati pasayadi
6	Infratuzilma (yo‘l, internet, transport)	Yuqori darajada rivojlangan	Yetarli emas	Hududiy nomutanosiblik	Rivojlanish cheklanadi
7	Investitsiya jalb qilish	Yuqori	Past	Kapital oqimi farqi	Iqtisodiy o‘sish notekis
8	Kambag‘allik darajasi	Past	Nisbatan yuqori	1.5 baravar farq	Ijtimoiy tengsizlik ortadi
9	Ijtimoiy xizmatlarga kirish	Keng	Cheklangan	Imkoniyat tafovuti	Ijtimoiy mobillik past
10	Raqamli texnologiyalardan foydalanish	Yuqori	Past	“Raqamli tafovut”	Axborot tengsizligi

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda hududiy ijtimoiy tabaqalashuv ko‘p o‘lchovli xarakterga ega bo‘lib, u faqat daromadlar bilan emas, balki bandlik, infratuzilma, ta’lim va ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlari orqali ham namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, qishloq hududlarida norasmiy bandlikning yuqoriligi va infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtiruvchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi. Bu holat xalqaro tadqiqotlar bilan ham mos keladi, ya’ni hududiy tafovutlar ijtimoiy tabaqalashuvning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ziyaviddinovna ta’kidlashicha, “aholining daromadlari va bandlik darajasi o‘rtasidagi farqlar ijtimoiy differensiallashuvning asosiy manbai hisoblanadi”. Ushbu fikr mehnat bozoridagi nomutanosibliklarning ijtimoiy tabaqalashuvga bevosita ta’sirini tasdiqlaydi. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida yuqori malakali va past malakali ishchilar o‘rtasidagi daromad tafovuti keskin ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu holat inson kapitalining sifat darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ta’lim va kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlaridagi tengsizlikni ham aks ettiradi.

2-jadval.
O‘zbekistonda ijtimoiy tengsizlik ko‘rsatkichlari dinamikasi [13]

№	Yil	Jini koeffitsiyenti	Kambag‘allik darajasi, foizda	Bandlik darajasi, foizda	Norasmiy bandlik, foizda	Izoh
1	2019	0.30	14.0	67.0	55.0	Islohotlar boshlanish bosqichi
2	2020	0.31	15.0	66.0	57.0	Pandemiya ta’siri
3	2021	0.32	14.5	67.0	56.0	Tiklanish davri
4	2022	0.33	14.0	68.0	54.0	Iqtisodiy o‘shish
5	2023	0.35	13.5	69.0	52.0	Bozor mexanizmlari kuchayishi

2-jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuv dinamikasining murakkab va ko‘p omilli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, Jini koeffitsiyentining 0.30 dan 0.35 gacha o‘shishi daromadlar o‘rtasidagi tafovutning kengayayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, kambag‘allik darajasining asta-sekin pasayib borishi davlat ijtimoiy siyosatining ma’lum darajada samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Bandlik darajasining o‘shishi ijobiy tendensiya sifatida baholansa-da, norasmiy bandlik ulushining hali ham yuqoriligi ijtimoiy himoya tizimining to‘liq qamrovga ega emasligini bildiradi. Ayniqsa, 2020-yilda pandemiya ta’sirida kambag‘allikning oshishi va bandlikning pasayishi iqtisodiy shoklarning ijtimoiy tabaqalashuvga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Mazkur jadval ijtimoiy tengsizlikning kamayishi va ortishi bir vaqtning o‘zida sodir bo‘layotgan murakkab jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa monitoring tizimlarida kompleks indikatorlardan foydalanish zarurligini asoslaydi.

Bundan tashqari, mehnat bozorida sektorlararo farqlar ham ijtimoiy tabaqalashuvni kuchaytiruvchi omil hisoblanadi. Masalan, xizmatlar va sanoat sohaslarida ish haqi darajasi qishloq xo‘jaligiga nisbatan yuqori bo‘lib, bu iqtisodiy faoliyat turlari o‘rtasida daromadlar differentsiallashtirishga olib keladi. Shu bilan birga, yuqori texnologiyali va innovatsion sohalarda bandlikning oshishi yuqori daromadli qatlam shakllanishiga xizmat qilmoqda, bu esa ijtimoiy tabaqalashuvning yangi ko‘rinishlarini yuzaga keltiradi.

Mehnat bozori strukturasi gender va yoshga oid tafovutlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayollar va yoshlar o‘rtasida rasmiy bandlik darajasining pastligi, ularning asosan past daromadli yoki norasmiy sektorda band bo‘lishi ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytiradi. Shu jihatdan, bandlik siyosatini takomillashtirish, ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun sifatli ish o‘rinlarini yaratish ijtimoiy tabaqalashuvni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuv darajasini tartibga solish va uning salbiy oqibatlarini yumshatishda davlat siyosati muhim institutsional omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy siyosat mexanizmlari orqali davlat aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga, ijtimoiy adolat tamoyillarini

ta'minlashga va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga intiladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy transferlar, subsidiya tizimi va bandlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari ijtimoiy tabaqalashuvni kamaytirishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Avvalo, ijtimoiy nafaqalar va transfert to'lovlari aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu mexanizmlar orqali daromadlar qayta taqsimlanadi va minimal ijtimoiy standartlar ta'minlanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, manzilli ijtimoiy yordam tizimi daromadlar tengsizligini sezilarli darajada yumshatish imkonini beradi, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun.

Ikkinchidan, subsidiya siyosati ham ijtimoiy tabaqalashuvni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Energetika, oziq-ovqat va transport sohalarida beriladigan subsidiyalar aholining xarid qobiliyatini qo'llab-quvvatlab, turmush darajasini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Biroq, ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, subsidiya mexanizmlarining samaradorligi ularning manzilliligi va shaffofligiga bevosita bog'liq bo'lib, noto'g'ri yo'naltirilgan subsidiyalar aksincha, tengsizlikni kuchaytirishi ham mumkin.

Uchinchidan, bandlik dasturlari ijtimoiy tabaqalashuvni kamaytirishda eng barqaror va uzoq muddatli ta'sirga ega vosita sifatida qaraladi. Yangi ish o'rinlarini yaratish, kasb-hunar o'qitish tizimini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali aholining iqtisodiy faolligi oshiriladi. Natijada, daromadlar bazasi kengayadi va ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tafovutlar qisqaradi.

Cornia tadqiqotiga ko'ra, O'zbekistonda amalga oshirilgan makroiqtisodiy siyosat boshqa o'tish iqtisodiyotiga ega davlatlarga nisbatan daromadlar tengsizligining keskin oshib ketishining oldini olishga xizmat qilgan. Xususan, davlat tomonidan iqtisodiyotni bosqichma-bosqich liberallashtirish, ijtimoiy himoya tizimini saqlab qolish va bandlikni qo'llab-quvvatlash siyosati ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lgan.

Shu bilan birga, zamonaviy bosqichda bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining chuqurlashuvi natijasida ijtimoiy tabaqalashuvning asta-sekin ortib borishi kuzatilmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, iqtisodiy o'sish va bozor samaradorligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, daromadlar differensiallashuvining kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, yuqori daromadli va past daromadli qatlamlar o'rtasidagi tafovutning ortishi ijtimoiy siyosatning yangi yondashuvlarini talab etmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hududiy va demografik tafovutlar ijtimoiy tengsizlikning asosiy manbalaridan biri sifatida shakllanmoqda. Xususan, iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlar bilan nisbatan kam rivojlangan hududlar o'rtasidagi farqlar, shuningdek, yoshlar va ayollar kabi demografik guruhlarining mehnat bozoridagi ishtiroki darajasidagi nomutanosibliklar ijtimoiy tabaqalashuvni chuqurlashtiruvchi omillar hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy siyosatni hududiy va demografik xususiyatlarni inobatga olgan holda shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bandlik va mehnat bozori strukturasidagi nomutanosibliklar ham ijtimoiy tabaqalashuvning muhim determinantlaridan biri ekanligi aniqlandi. Rasmiy va norasmiy sektor o'rtasidagi tafovutlar, yuqori va past malakali ishchilar o'rtasidagi

daromad farqlari hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi darajasidagi nomutanosibliklar ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, norasmiy bandlikning yuqori ulushi ijtimoiy himoya mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligiga olib kelib, aholining ayrim qatlamlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zaif holatga tushirib qo'yadi.

Davlatning ijtimoiy siyosati ijtimoiy tabaqalashuvni yumshatishda muhim stabilizatsion rol o'ynayotganligi ham tahlillar natijasida tasdiqlandi. Ijtimoiy nafaqalar, subsidiya tizimi va bandlik dasturlari orqali aholining kam ta'minlangan qatlamlari qo'llab-quvvatlanmoqda hamda daromadlar o'rtasidagi tafovutlar ma'lum darajada kamaytirilmoqda. Biroq, mavjud mexanizmlar ijtimoiy tengsizlikni to'liq bartaraf etish uchun yetarli emasligi, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida tabaqalashuvning tabiiy ravishda yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlarini samarali boshqarish uchun raqamli monitoring tizimlarini joriy etish zarurati ortib bormoqda. An'anaviy statistik usullar ko'pincha vaqt jihatidan kechikkan ma'lumotlarni taqdim etadi, bu esa tezkor va asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli, Big Data, sun'iy intellekt va raqamli platformalar asosida ishlovchi monitoring tizimlari ijtimoiy jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish imkonini berib, ijtimoiy siyosat samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Xalqaro ilmiy izlanishlar bilan yuqori darajada mos kelishini ko'rsatdi. Xususan, daromadlar tengsizligi va ijtimoiy tabaqalashuv o'rtasida kuchli korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi tasdiqlandi. Zamonaviy sotsiologik va iqtisodiy tadqiqotlarda ham daromadlar differensiallashuvi ijtimoiy stratifikatsiyaning asosiy indikatorlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda kuzatilayotgan tendensiyalar global jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston tajribasi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Xususan, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tartibga solish mexanizmlari - ijtimoiy himoya tizimi, subsidiyalar va bandlik dasturlari - ijtimoiy tengsizlikning keskin oshib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynayotganligi aniqlandi. Xalqaro tajriba bilan solishtirganda, bu yondashuv o'tish iqtisodiyotiga ega ko'plab davlatlarga xos bo'lgan keskin tabaqalashuv jarayonlarini nisbatan yumshoq shaklda kechishini ta'minlayotganini ko'rish mumkin. Bu esa davlatning faol ijtimoiy siyosati ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim institutsional omil ekanligini tasdiqlaydi.

Biroq, zamonaviy iqtisodiy rivojlanish bosqichida ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlari tobora murakkablashib borayotganligi kuzatilmoqda. Globalizatsiya, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va mehnat bozoridagi strukturaviy o'zgarishlar ijtimoiy tengsizlikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, an'anaviy statistik kuzatuv usullari ushbu jarayonlarni to'liq va tezkor aks ettirish imkoniyatiga ega emas.

Mazkur sharoitda ijtimoiy tabaqalashuvni samarali boshqarish uchun zamonaviy monitoring mexanizmlarini joriy etish zarurati ortib bormoqda. Xususan, real vaqt rejimida ishlovchi statistik monitoring tizimlari ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning

dinamikasini tezkor kuzatish imkonini beradi. Bu esa davlat organlariga vaziyatga mos ravishda operativ qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Big Data asosidagi tahlil metodlaridan foydalanish ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlarini chuqur va kompleks o'rganishga xizmat qiladi. Katta hajmdagi ma'lumotlar asosida aholi daromadlari, iste'mol darajasi, bandlik va hududiy rivojlanish ko'rsatkichlarini integratsiyalashgan holda tahlil qilish mumkin bo'ladi. Bu esa ijtimoiy siyosatni aniq va manzilli shakllantirish imkonini kengaytiradi.

Bundan tashqari, hududiy kesimda chuqur monitoring olib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun batafsil hududiy tahlil zarur. Ayniqsa, infratuzilma rivoji, bandlik darajasi va ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlari bo'yicha farqlarni aniqlash ijtimoiy tabaqalashuvni kamaytirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlari nisbatan nazorat ostida shakllanayotgan bo'lsa-da, uning asta-sekin o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu holat, avvalo, daromadlar tengsizligi dinamikasida, shuningdek, hududlar va ijtimoiy-demografik guruhlar o'rtasidagi tafovutlarda o'z ifodasini topadi.

Hududiy differensiallashuv - iqtisodiy rivojlangan va kam rivojlangan hududlar o'rtasidagi farqlar - ijtimoiy tabaqalashuvni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, demografik jihatlar, jumladan yoshlar va ayollar bandligidagi nomutanosibliklar ham ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashuviga olib kelmoqda. Bundan tashqari, mehnat bozori strukturasiidagi farqlar, ayniqsa rasmiy va norasmiy bandlik o'rtasidagi tafovutlar ham ijtimoiy tabaqalashuv darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat mexanizmlari - ijtimoiy nafaqalar, subsidiya tizimi va bandlik dasturlari - ijtimoiy tengsizlikni ma'lum darajada yumshatishda muhim rol o'ynamoqda. Biroq, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy tabaqalashuvning tabiiy ravishda yuzaga kelishi ushbu jarayonni to'liq bartaraf etishni murakkablashtiradi.

Shu munosabat bilan, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlarini samarali boshqarish uchun zamonaviy monitoring tizimlarini joriy etish zarurati ortib bormoqda. Xususan, real vaqt rejimida ishlovchi statistik kuzatuv tizimlari, Big Data asosidagi tahlil vositalari va hududiy kesimda chuqur monitoring mexanizmlarini joriy etish ijtimoiy siyosatning aniqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tabaqalashuvni boshqarish kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarni uyg'unlashtirish, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Frank, J.W., Matsunaga, E. National monitoring systems for health inequalities by socioeconomic status - an OECD snapshot // *Critical Public Health*. - 2022. - Vol. 32, No. 4. - P. 1-14. - DOI: <https://doi.org/10.1080/09581596.2020.1862761>
2. Marx K. *Capital: A Critique of Political Economy*. - London: Penguin Classics, 1867. - 1152 p.
3. Weber M. *Economy and Society*. - Berkeley: University of California Press, 1922. - 1469 p.
4. Durkheim E. *The Division of Labor in Society*. - New York: Free Press, 1893. - 354 p.
5. Skopek J., Triventi M., Buchholz S. *Social stratification research*. - Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2019. - 432 p.
6. Hertel F.R., Schöneck N.M. Inequality and social conflict // *Acta Sociologica*. - 2022. - Vol. 65(2). - P. 123-140.
7. Roche J.M. Monitoring inequality among social groups // *Journal of Human Development*. - 2008. - Vol. 9(2). - P. 123-145.
8. Di Bella E., Leporatti L., Maggino F. Big Data and social indicators // *Social Indicators Research*. - 2018. - Vol. 135(3). - P. 869-878.
9. Cornia G.A. Heterodox macroeconomic policies, inequality and poverty in Uzbekistan // *Pro-Poor Macroeconomics*. - London: Palgrave Macmillan, 2006. - P. 285-310.
10. Balbaa M.E., Abdurashidova M. Income inequality determinants in Uzbekistan // *Green Economy and Development*. - 2023. - Vol. 2(1). - P. 45-60.
11. Djuraevna K.S. Population and social inequality // *International Journal of Social Sciences*. - 2024. - Vol. 5(2). - P. 78-84.
12. Mavluda A. Statistical analysis of inequality and poverty indicators // *Global Economics Journal*. - 2025. - Vol. 6(1). - P. 55-63.
13. Ziyaviddinova M.M. Development of human capital in Uzbekistan by reducing inequality // *American Journal of Economics and Business Administration*. - 2019. - Vol. 11(2). - P. 120-130.
14. Moon J., Choi J.W., Kim K.H. Regional disparities in Uzbekistan // *Sustainability*. - 2024. - Vol. 16(3). - P. 1120-1135.
15. Mubarakov Y., Bordiyanu I. Labor market inequality in Central Asia // *Economic Studies*. - 2025. - Vol. 7(1). - P. 90-105.
16. Axmadovich X. Z. HUDUDLARNING IJTIMOYIY TABAQALASHUV DARAJASINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH // *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*. - 2024. - T. 4. - №. 09. - C. 415-424.
17. Khakimov M. E. Z., Aziz B., Tursunov B. PROCESSES OF SOCIAL STRATIFICATION IN UZBEKISTAN: GENERAL TRENDS AND SPECIFIC FEATURES // *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*. - 2025. - T. 3. - №. 12. - C. 237-247.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**